kirlar yosh avlodni bilim olishga da'vat etib, ular mustamlakachilik zulmiga qarshi ongli tarzda kurashishi lozimligini ta'kidlaganlar [6]. Bugungi kunda ham ta'lim tizimida milliy ongni mustahkamlash va yoshlarni o'z milliy qadriyatlariga sodiq bo'lishga undash muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Taniqli jadid ma'rifatparvari, birinchi o'zbek pedagogi Abdulla Avloniyning tarbiyaga bergan ta'rifi jadidchilik faoliyatida tarbiya masalalari nechog'liq yuksak o'rin tutganidan dalolat beradi: "Alhosil tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot,yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir". Tarbiya masalasi bugungi kunda ham dolzarb masala hisoblanadi. Jadidchilar orasida A.Avloniy o'z faoliyati davomida tarbiya masalariga juda keng o'rin ajratadi. Avloniy o'zi yaratgan asarlarda ta'lim bilan bir qatorda, tarbiyaga ham alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. Uning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari aynan tarbiya masalalariga bag'ishlangan. A.Avloniy tarbiya doirasini keng ma'noda tushunadi, uni faqat axloq bilan chegaralab qo'ymaydi, balki tarbiya vatanga sadoqat, el-yurtga hurmat kabi insoniy fazilatni ham o'zida mujassamlashtiradi, degan g'oyani ilgari suradi. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 4 bo'limga ajratadi:

1. Tarbiyaning zamoni.
2. Badan tarbiyasi.
3. Fikr tarbiyasi.
4. Axloq tarbiyasi va uning ahamiyati haqida so'z yuritadi.

Fitrat bolalar tarbiyani o'zi yashayotgа atrof-muhit va atrofidagi bolalardan olishlarini ta'kidlaydi. U ijtimoiy muhitning bola tarbiyasiga katta ta'sir o'tkazishini isbotlab beradi. Fitrat o'zining asarida: "Dunyoda izzat va saodat tolibi bo'lmagan birorta qavm yo'q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi", deya yozadi [7].

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi aniq rejalarni amalga oshirishda, ta'limni eng quyi pog'onalaridan boshlanishi muhimdir. Zero, kelajakka yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har bir shaxs uchun asosiy vazifa bo'lmog'i lozim. Bu borada ta'limda o'tmish va kelajakni birga bog'lash eng muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi. "Qurolli kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir".https://www.uzbekembassy.in/qurolli-kuchlarimiz-mamlakatimiz-barqarorligi-va-taraqqiyotining-mustahkam-kafolatidir/?lang=uz.

(2). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. https://lex.uz/docs/-6518238?ONDATE= 16.01. 2024

(3). "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". https://lex.uz/docs/-3307879.

(4). Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. https://lex.uz/docs/-3571158.

(5). Mahmudov R.M., Akbarov L.I. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi amalda. Pedagogs international research journal. Vol. 1, Issue 1, January-2022, p. 230.

(6). Rizayev N.S. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida jadidchilik g'oyalarining ahamiyati. Pedagogs social, scientific journal. Vol. 56, Issue 2, 2024, p. 39.

(7). Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T., 2018, 31-bet.

(8). Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Toshkent, "Ma'naviyat", 2020, 112-bet.

Rajapova Kumush Masharipovna (Qaraqalpoq davlat universiteti dotsenti)

ONA TILI MASHG'ULOTLARIDA MAQOL VA MATALLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ona tili darslarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish texnologiyalari haqida gap ketadi. Shuning bilan birga, dars jarayonida maqol ва matallar ustida ish olib borishda amalga oshiriladigan amaliy va ijodiy ishlar bo'yicha ham ma'lumotlar keltirilgan hamda o'quvchilarning nutqini o'stirishda maqol ва matallarning ahamiyati haqida ham fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, maqolada xalq og'zaki ijodi namunalarining o'quvchi tarbiyasida tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *barqaror birikma, maqol, matal, ibora, turg'un birikma, tasviriy ifoda, shakldosh so'zlar, ma'nodosh so'zlar, jarangsizlanish, fonetik hodisalar.*

Раджапова Кумуш Машариповна (доцент Каракалпакского государственного университета)

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются технологии использования образцов устного народного творчества на уроках родного языка. Также представлена информация о практической и творческой работе, проводимой при работе над пословицами и поговорками в процессе урока. Также были высказаны мнения о важности пословиц и поговорок в развитии речи учащихся. В статье также уделяется особое внимание роли образцов устного народного творчества в воспитании учащихся.*

Ключевые слова: *устойчивое сочетание, пословица, поговорка, выражение, устойчивое сочетание, описательное выражение, омонимы, синонимы, глухота, фонетические явления.*

Rajapova Kumush Masharipovna (Karakalpak State University Doctor of pedagogic sciences, Associate professor)

USE OF PROVERBS AND SAYINGS IN NATIVE LANGUAGE CLASSES

Annotation. *This article discusses the technologies of using examples of oral folk art in native language lessons. At the same time, information is provided on practical and creative work carried out during the lesson on proverbs and sayings. Opinions are also expressed about the importance of proverbs and sayings in the development of students' speech. The article also pays special attention to the role of examples of oral folk art in the upbringing of students.*

Keywords: *fixed compound, proverb, saying, idiom, fixed compound, figurative expression, homonyms, synonyms, voicelessness, phonetic phenomena.*

Kirish (Introduction). Ona tili ta'limini o'rganishdan asosiy maqsad kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, qiroat va suxandonlik san'atidan xabardor, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini mukammal egallagan, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan iborat. Chunki yoshlar ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiya olsagina, har jihatdan barkamol, erkin shaxs bo'lib rivojlana oladi.

Bola o'z ona tilini o'qib o'rganib olgandagina, uning zehni, aqli, fikrlash qobiliyati, ongi va ma'naviy-axloqiy darajasi oshadi. Ayniqsa, o'zbek xalqining tarixida xalq yaratgan madaniy-tarixiy boyliklaridan hamda bugungi kundagi mustaqil elimizning erishayotgan yutuqlaridan xabardor bo'ladi. Boshqa fanlar asosini chuqur o'zlashtirishga dadil qadam tashlaydi. Ana shuning uchun ham o'qituvchi, birinchi navbatda, o'quvchilarning o'z ona tiliga bo'lgan muhabbatini uyg'otishi lozim. Chunki ona tiliga bo'lgan muhabbat Vatanga, xalqqa bo'lgan muhabbat bilan chambarchas bog'liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ona tili darslarida xalq og'zaki ijodi namunalridan foydalanish nutqiy ko'nikma hosil qiluvchi va bolani tarbiyalovchi asosiy vosita hisoblanadi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni ana shunday mashqlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunday mutaxassislar tayyorlashda, avvalo, mashq nima ekanini, uning boshqa o'quv topshiriqlaridan farqi qanday ekanini bilish zarur. Bu borada pedagogika sohasida O.Roziqov, I.Davronov kabi olimlar muayyan fikrlar bildirgan bo'lsa, aynan ona tili ta'limi bilan bog'liq holda G'.Hamroyev bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

"Pedagogika ensiklopediyasi"da mashqqa berilgan ta'rifning ancha takomillashgani va ta'lim sohasiga moslashtirilgan shaklini ko'rish mumkin: Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko'p marta takrorlash. Masalan, o'qish, yozish. Mashq ta'limda ko'nikma va malakalar hosil qilishda muhim o'rin tutadi [1].

G'.Hamroyevning ta'kidlashicha, mashq – ko'nikma yoki malaka hosil qilish vositasi. Topshiriq esa egallangan ko'nikmalarni sinash vazifasini bajaradi. U yo'naltiruvchi xususiyatga ega. Topshiriq orqali o'quvchini fikrlashga, mustaqil ishlashga ham o'rgatish mumkin. Zero, mashqlar ham, topshiriqlar ham "Ona tili" darsliklarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariy ma'lumotlar, ya'ni, grammatik qoidalar o'quvchida belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Ta'lim mazmunida o'quvchi egallashi ko'zda tutilgan ko'nikma va malakani, asosan, mashqlar shakllantiradi. Topshiriqlar bu o'rinda ko'proq o'quvchi bilimini boyitishga xizmat qiladi [2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotning obyekti sifatida ona tili darslarida amaliy jihatdan bajariladigan og'zaki va yozma shakldagi mashqlar olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, kontekstual, kompleks va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq Respublikamizda xalqimizning milliy qadriyatlari, madaniyati, ma'naviyati hamda til madaniyatiga katta e'tibor qaratila boshladi. Mana shuning natijasida uzoq yillar davomida saqlanib, bizga meros bo'lib qolgan xalqimizning qadriyatlari va madaniyatimizning tiklanishiga ham erishildi. Shu jumladan, xalq og'zaki ijodining noyob

namunalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Chunki xalq og‘zaki ijodi yosh avlodni tarbiyalashda bitmas-tuganmas xazina bo‘lib, uning ahamiyati benihoya kattadir. O‘zbek xalqining bolalarni tarbiyalash sohasidagi g‘oyalari, tajribalari, usul va choralari xalq pedagogikasida to‘la-to‘kis o‘z ifodasini topgandir. Ertak, maqol, matal, dostonlar vositasida bolalarni o‘z eliga, millatiga, ona diyoriga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifalaridir. Ayniqsa, maqol va matallarning bola tarbiyasida tutgan o‘rni benihoya kattadir. Chunki maqol va matallar xalqning ming yillik turmush tajribalarida sinalgan hayotiy xulosalari, donoligi, ma’naviy boyligi, durdonalaridir. Xalq maqollarining matni bilan tanishar ekanmiz, xalqimiz el farzandlarining bir-biriga hamkor, halol, pok bo‘lishi bilan birga mard, vatanparvar, ilmni sevuvchi shaxs darajasiga ko‘tarilishini ham xohlaganligiga ishonamiz.

Maqollar va matallar xalq og‘zaki ijodi merosining eng keng tarqalgan va eng xarakterli janri hisoblanadi. Xalq tarixi, xarakteri, mehnat faoliyati va turmushining o‘ziga xosliklari maqollarda muhrlangan yoki qadimiy turmushning toshlarga qoldirgan izlari singari ishonchlidir.

Xalq maqol va matallari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko‘rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari hamda maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Ularda xalqimizning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari to‘la namoyon bo‘lgan. Shuning uchun ham maqollar g‘oyatda keng tarqalgan bo‘lib, asrlar davomida jonli so‘zlashuv va o‘zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy, publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo‘llanilib kelgan va qo‘llanmoqda.

Maqol va matallar uzoq o‘tmishda bo‘lgani kabi, bugungi kunda ham yosh avlodni ajdodlar havas qilgan barkamol inson darajasiga yetaklovchi asosiy tarbiya vositalaridandir. Tilshunoslikning barcha sohalarini o‘rgatish jarayonida maqol va matallardan samarali foydalanish mumkin. Masalan, fonetika bo‘yicha olib boriladigan darslarda, xususan, 5-sinfda quyidagi mashqlar ustida ishlash mumkin:

Mashq. Maqollarni o‘qing. Xato yozilgan so‘zlarni topib to‘g‘irlang va yod oling. Qiynalgan o‘rinlarda imlo lug‘atidan foydalaning.

Ilm o‘lchovi – aql,
Zehn o‘lchovi – naql.
Kitob ko‘rmagan kala –
Giyoh unmagan dala.
Bilmaganini so‘rab o‘rgangan olim,
Orlanbp so‘ramagan o‘ziga zolim.

O‘quvchilar bu mashqni bajarish jarayonida maqollar tarkibida xato yozilgan quyidagi so‘zlarni aniqlaydilar: *ilim, aqil, zehin, kitop, kala, giyox dalla, so‘rap, orlanip.* Mana shu so‘zlar tarkibida qanday xatoliklar ketganliklarini aniqlash va xatosining o‘rniga to‘g‘ri variantini qo‘yib chiqadilar. Yuqoridagi kabi mashqlar o‘quvchilarni o‘ylashga majbur qiladi, ularning topqirligini oshiradi. Shuning bilan birga og‘zaki va yozma nutqining o‘sishiga yordam beradi.

Mashq. Maqollarning davomini keltiring va ajratib ko‘rsatilgan harflar boshqalaridan qanday farq qilishni tushuntiring.

Ish ish*taha* ***och****ar...*
*Mehnat. Mehnatni****ng*** *tagi ...*
*Uc****hish****ga qanot kerak,*
*O‘qi****sh****ga...*

Mashq. Quyidagi matnni yozib oling, undagi undosh harflar talaffuzda qaysi nutq a’zolari yozdamida hosil bo‘lganini bayon qiling.

XI asrda yashagan bobomiz Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “Tirishqoqning labi yog‘liq – erinchoqning boshi qonlik”, “Yoshlikda tirishib harakat qilgan odam, katta bo‘lgach, sevinadi”, “Baxt belgisi ilmdir”, “Odobning boshi til” kabi ko‘plab xalq maqollari o‘rin olgan.

Mashq. Maqollarni ko‘chiring. So‘zlar tarkibida kelgan unli tovushlarga tavsif bering. Ulardagi g‘oya haqida bahslashing.

1. Aql ko‘pga yetkazadi, hunar – ko‘kka. 2. O‘qish yaxshi, uqish undan ham yaxshi. 3. Yomonlikning oxiri – voy. 4. Mehnatda sinalgan – elda aziz. 5. So‘z doriga o‘xshaydi – ortiqchasi zarar keltiradi.

Mana shu mashq ustida ishlash jarayonida maqollarda ifoda etilgan mazmun ustida o‘quvchilar bilan ko‘proq bahs olib borilsa yaxshi natija beradi.

Mashq. Maqollarni o‘qib, yod oling. Zid ma’noli so‘zlarni izohlang. Ulardan nutqingizda foydalan-

ganmisiz?

1. Kattaga salom ber, kichikka – kalom. 2. Yaxshilik nur keltirur, yomonlik – zulmat. 3. Yomonni tanqid qil, yaxshiga taqlid qil! 4. Ko'p bilgan oz so'zlar, oz so'zlasa ham, soz so'zlar.

Bu mashq tarkibida keltirilgan xalq maqollarida zid ma'noli so'zlar qatnashgan. O'quvchilar mana shu so'zlarni aniqlaydilar va har bir maqolning ma'nosini izohlab beradilar. Qo'shimcha tarzda, uyga vazifa sifatida shu maqollarni yod olishni ham topshirish mumkin. Quyidagi mashqdan esa «Asos va qo'shimchalar» mavzusini o'rgatish jarayonida foydalanish mumkin:

Mashq. Gaplarni o'qing. Nuqtalar o'rniga berilgan qo'shimchalardan mosini qo'yib, ko'chiring. Qo'shimchalarning so'zga qanday ma'no qo'shayotganini ayting. Ulardagi g'oya haqida bahslashing.

1. To'g'ri... bilan xiyonat, yolg'on... bilan diyonat chiqisha olmay...

2. Baxt...lik... belgisi nodonlik... . 3. Qo'rq... do'st yovuz dushman... yomon.

4. Yalqovlik muhtojlik eshig...dir.

(-lik, -di, -chilik, -oq, -dan, -siz, -ning, -i, -dir)

Quyidagi mashqda chuqur mazmunga ega bo'lgan bir qancha qardosh va qardosh bo'lmagan xalqlarga mansub maqollar keltirilgan:

Mashq. Maqollarni ifodali o'qing. So'zlardagi fonetik hodisalarni aniqlang. *Orqada turgan do'stdan oldinda turgan dushman yaxshi (Gruzin maqoli). Mehnat hayot* ***chirog'iga*** *yog' quyadi, tafakkur esa* ***uni*** *yoritadi (Ingliz maqoli). Nodon aytur: g'olib chiqdim, dono aytur: yo'l berdim (Tatar maqoli). Dono olg'a boraturib, orqaga qarab qo'yadi (Pushtun maqoli). Aqlli xalqqa* ***intilsa****, nodon o'z qarindosh-urug'lariga* ***intiladi*** *(Qirg'iz maqoli). Do'stlik shishaga monand, sinsa – ulay olmaysan (Rus maqoli). Kishilarga muhabbat – eng yaxshi davlat (Arab maqoli). Yakkani bo'ri yer (Qoraqalpoq maqoli).*

Yuqoridagi mashqni bajarish orqali o'quvchilar ham imlo qoidalarini o'zlashtiradilar, ham ularda boshqa xalqlarning adabiyotiga va xalq og'zaki ijodiyotiga bo'lgan qiziqish ortadi. Bu mashqlarni o'quvchilarga bajartirishdan ko'zlangan asosiy maqsad, o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitishdir. Bunday mashqlar ustida boshqa sinflarda ham ish olib boorish mumkin. Masalan, 6-sinfda quyidagi mashqlar ustida ishlash mumkin:

Mashq. Maqollarni o'qing, yod oling. So'zlarni turkumlarga ajrating.

Mehnat – hayot tomiridagi qon.

Bugungi mehnat – ertaning rohati.

Mehnatni hurmatlasak, u bizni e'zozlaydi.

Inson mehnat bilan ulug'lanadi.

Baxtning kaliti mehnatning cho'ntagida.

Bog'-u bo'stonlar – mehnat mahsuli.

Gul uzishdan oldin gulzor yaratadilar.

Mehnatkash odam fisq-fasod gaplarni bilmaydi.

Mehnat odamni hayot qiyinchiliklaridan qutqaradi.

Yalqovlik bor yerda ko'z bo'yash bor.

Yumshoq paxta qattiq mehnatning mahsulidir.

Mashaqqatning mahsuli farog'atdir.

Odam mehnatini yoysa, mehnati uning shuhratini yoyadi.

Odam bahosizdir, ammo uni mehnati baholaydi.

Mehnat – yo'qchilikning kushandasi.

Bu mashq tarkibida keltirilgan xalq maqollarida tilimizdagi barcha so'z turkumlari qatnashgan. O'quvchilar mana shu so'z turkumlarini guruhlarga ajratadilar va har bir maqolning ma'nosini izohlab beradilar. Qo'shimcha tarzda uyga vazifa sifatida shu maqollarni yod olishni ham topshirish mumkin.

Bilamizki, o'quvchilar, ko'pincha, so'zlarning talaffusi va yozilishida xatoga yo'l qo'yadilar. Mana shunday darslarda quyidagi mashqlar ustida ishlash yaxshi natija beradi:

Mashq. Quyidagi matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib o'qing, so'zlarning talaffuziga rioya qiling.

Oltin o'tda bilinadi, odam – mehnatda. Mehnat bilan inoqlashsang, tan og'rig'in ko'rmassan. Ko'p ishlovchi ko'p yashaydi. Mehnat qilsang, ko'nglingga yorug'lik tushadi. Odamlar sening chiroyingga, kiygan kiyimingga qarab emas, balki qilgan ishingga qarab turib baho beradilar. Yashash uchun foydali mehnat qilish kerakligini anglab yetish insonlikning birinchi shartidir. Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo'lmaydi.

Biz dars jarayonida maqollardan foydalanishda, avvalo, ularning tarbiyaviy jihatiga ko‘p e’tibor berishimiz kerak. Quyidagi mashq orqali esa o‘quvchilar ham xalq maqollarini bilib oladilar, ham ular qalbida vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usini yuksaltirishga erishamiz:

Mashq. Gaplarni ko‘chiring. Ularning qanday mavzuga oid ekanligini aniqlang. Vatan mavzusidagi fikrlaringizni bayon qiling.

1. Ayrilmagin elingdan, quvvat ketar belingdan. 2. Baliq suv bilan tirik, odam el bilan. 3. Vatan qadrini bilmagan o‘z qadrini bilmas. 4. Vatansiz inson – kuysiz bulbul. 5. Dushmanga nafrati bo‘lmaganning Vatanga muhabbati bo‘lmas. 6. Begona tuproq –devona tuproq. 7. Bulbul chamanni sevar, odam– Vatanni. 8. Vatan gadosi – kafan gadosi. 9.Vatan uchun o‘lmoq ham sharaf. 10. Vatangado bo‘lguncha, kafangado bo‘l. 11. Vatandan yiroqlashgan nomusdan o‘lar. 12. Vatani borning baxti bor, mehnati borning – taxti.

Maqollarni o‘rganish jarayonini qiziqarli qilish uchun turli o‘yinlar va musobaqalar ham tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, ”Maqolni to‘ldir” yoki ”Maqolni top” o‘yinlarini quyidagi shaklda tashkil qilish mumkin:

1-topshiriq. Maqollarni davom ettiring.

1. Birni sochsang yerga, …
2. Bir kun tuz ichgan joyingga …
3. Bir yigitga …
4. Ko‘z qo‘rqoq...
5. Yetti o‘lchab …
6. Bir soatlik ilm o‘rganmoq…
7. Qirq yillik qadr ...
8. Avval o‘yla…
9. Mard – o‘zar…
10. Bor – boricha...

2-topshiriq. Matnda qatnashgan sonlarni aniqlang va izoh bering.

Maqol va matallarni bunday tartibda o‘rgatish orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi oshadi. Nutqning rang-barangligi va jozibadorligi ta’minlanadi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchilarning nutq madaniyati takomillashib boradi. Darsliklarda mavzuga bog‘liq holda mashq matnlari ichida juda ko‘p maqol va matallar berilgan. O‘quvchilar bularni o‘qib, o‘qilgan asarni axloqiy muammosi bilan, hayotiy sharoit bilan bog‘laydilar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O‘qituvchining mahorati, uni dars davomida maqollardan unumli foydalanishida yaqqol bilinadi. O‘quvchilar maqollarni yoqtiradilar, shuning uchun ham maqollar bilan berilgan topshiriqlarni jon dildan bajaradilar. O‘qituvchi shularni hisobga olib, maqol va matallar bilan bog‘liq xilma-xil mashqlar ishlatish orqali o‘quvchilarga so‘zlarning majoziy ma’nosini, ko‘p ma’no ifodalanishini amaliy singdirib borishi lozim. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, maqol va matallarni qo‘llash, o‘z navbatida, ta’lim va tarbiya jarayonida muhim manba bo‘lib hisoblanadi. Xususan, ona tili fani doirasida maqollardan foydalanish bolada vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirishda keng yordam beradi.

Xullas, o‘quvchilar nutqini boyitishda va ularni har tomonlama barkamol, yetuk inson qilib tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodining nodir namunalari katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, xalq maqol va matallari o‘qish uchun ham, suhbat uchun ham, hikoya tuzish uchun ham, grammatik tahlil va yozuv uchun ham juda qulay materialdir. Ular ixcham, sermazmun va ta’sirchan bo‘lganligi uchun ham o‘quvchilarning badiiy didini o‘stiradi, nutqqa e’tibor bilan qarashga, to‘g‘ri mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi. Eng asosiysi, o‘quvchini estetik jihatdan tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). G‘ulomov A., Qobilova B. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. Metodik qo‘llanma, “O‘qituvchi”, Toshkent, 1995.

(2). Ne’matov H., G‘ulomov A., Ziyodova T. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma, T., “O‘qituvchi”, 1996.

(3). Saidov M. O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi. Ped. fan. nom-di diss. avtoref., TDPU,T., 2000.

(4). Hamroyev G‘. Ona tili o‘qitishning samarali usullari. T., “Bayoz”, 2018.

(5). Hamroyev G‘. Ona tilidan o‘quv topshiriqlari tuzish metodikasi. Toshkent, “Donishmand ziyosi”, 2021, 154-bet.

(6). Rajapova K.M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma, T., “Firdavs –Shoh”, 2023.